

PUBG MOBILE O'YININIG IJTIMOIIY TASIRINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

X. U. Samatov

Ilmiy rahbar.

Sultonov Mardon

Toshkent Axborot Texnologiyasi Universiteti

Samarqand filiali Kompyuter injiniring fakulteti DI 21-11-guruh talabasi.

Telefon raqam: +998915551207

Elektron pochta manzili: mardonultonov8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11223430>

Annotatsiya. Ushbu maqola, jahon bo'ylab millionlab foydalanuvchilarga ega bo'lgan PUBG Mobile o'yinining ijtimoiy ta'sirini tahlil qiladi. Maqola, o'yin orqali shakllanadigan ijtimoiy aloqalar, o'yinchi shaxsiyati, shuningdek, o'yin o'ynash madaniyati va jamiyatga ta'sirini o'rganadi. Maqola, o'yin ichida va tashqarisida yuzaga keladigan ijtimoiy o'zgarishlar va o'yinlar orqali ijtimoiy muloqotning yangi usullari haqida tushuncha beradi. Tahlil, shuningdek, PUBG Mobile o'yinining global madaniy ta'sirlarini ham ko'rib chiqadi. Maqolaning asosiy maqsadi, raqamli o'yinlarning ijtimoiy tuzilish va shaxsiyat shakllanishi ustidagi ta'sirini yoritish orqali o'yin va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni ochib berishdir.

Kalit so'zlar: integratsiya, donat, Mikrotransaksiyalar, e-sport.

SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF THE SOCIAL IMPACT OF PUBG MOBILE GAME

Abstract. This article analyzes the social impact of PUBG Mobile, a game with millions of users worldwide. The article explores the social connections formed through gaming, the player's identity, and the impact of gaming on culture and society. The article provides insight into the social changes occurring within and outside of gaming and new ways of social communication through gaming. The analysis also looks at the global cultural effects of the PUBG Mobile game. The main goal of the article is to reveal the interactions between games and society by highlighting the impact of digital games on social structure and personality formation.

Key words: integration, donat, Microtransactions, e-sport.

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ МОБИЛЬНОЙ ИГРЫ PUBG

Аннотация. В данной статье анализируется социальное влияние игры PUBG Mobile, которая имеет миллионы пользователей по всему миру. В статье исследуются социальные связи, формируемые посредством игр, личность игрока, а также влияние игр на культуру и общество. В статье дается представление о социальных изменениях, происходящих внутри и за пределами игр, а также о новых способах социальной коммуникации через игры. В анализе также рассматривается глобальное культурное влияние игры PUBG Mobile. Основная цель статьи — раскрыть взаимодействие игр и общества, подчеркнув влияние цифровых игр на социальную структуру и формирование личности.

Ключевые слова: интеграция, донат, микротранзакции, киберспорт.

Zamonaviy jamiyatda raqamli o'yinlar nafaqat ko'ngilochar vosita sifatida, balki o'zaro munosabatlar maydoni sifatida tobora muhim o'rin egallamoqda. PUBG Mobile, o'zining keng

tarqalgan populariteti va global miqyosdagi ta'siri bilan, shubhasiz bu jarayonda yetakchi rol o'ynaydi. Ushbu maqola, PUBG Mobile o'yininig ijtimoiy o'lchovlarini va uning o'yinchilar hayotidagi ta'sirini sotsiologik nuqtai nazaridan o'rganadi. Maqolaning maqsadi, PUBG Mobile ning jamiyatdagi o'rnini chuqurroq tahlil qilib, o'yin madaniyati ijtimoiy munosabatlarga qanday ta'sir qilayotganini ko'rsatishdir. Shuningdek, maqola o'yin orqali shakllanadigan ijtimoiy aloqalar, shaxsiy va guruh bo'lib o'ynash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy integratsiya holatlarini o'rganishga qaratilgan. Bundan tashqari, bu tahlil PUBG Mobile foydalanuvchilari orasida kuzatiladigan gender va madaniy farqlarni ham ko'rib chiqadi, shuningdek o'yinlar orqali shakllanadigan global ijtimoiy o'zgarishlarni baholaydi.

PUBG Mobile - bu Tencent Games bo'limi LightSpeed & Quantum Studio tomonidan ishlab chiqilgan bepul jangovar qirolik video o'yini hisoblanadi. Bu mobil o'yinga 2017 – yil 20-dekabrda asos solingan. Dastlab u Android va iOS uchun 2018-yil 19-martda global versiyasini chiqarilgan^[1].

PUBG: Battlegrounds (PlayerUnknown's Battlegrounds yoki Pubg nomi bilan tanilgan) — Krafton sho'ba korxonasi va PUBG Studios tomonidan ishlab chiqilgan onlayn multiplayer jangovar o'yin. O'yin Brendan Grin tomonidan 2000-yilda premyera qilingan „Battle Royale“ filmidan ilhomlangan holda yaratilgan^[1]. O'yinda yuzga yaqin o'yinchi orolga parashyutda tushishadi va o'zlarini o'ldirishdan qochib, boshqalarni o'ldirish uchun qurol va jihozlarni olib ketishadi. O'yin xaritasining mavjud xavfsiz hududi vaqt o'tishi bilan o'lchami kichrayib, omon qolgan o'yinchilarni to'qnashuvlarga majburlash uchun torroq joylarga yo'naltiradi. Omon qolgan oxirgi o'yinchi (yoki jamoa) raundda g'alaba qozonadi. PUBG: Battlegrounds 2017-yilning mart oyida birinchi marta Microsoft Windows foydalanuvchilariga beta talqinda taqdim etilgan.

O'yinning to'liq talqini 2017-yil 20-dekabr oyida e'lon qilingan^[1].

O'yin jarayonlari: O'yinda 100 tagacha o'yinchi jang qiladi, bunda ayrim xaritalarda kattaligiga qarab odam soni kamayishi mumkin. O'yinchilar so'nggi omon qolgan bo'lish uchun o'zaro kurashadilar. O'yinchilar o'yinga qanday kirishni tanlashlari mumkin: yakka holda, juftlikda, to'rt kishilik jamoada. Har qanday holatda ham, oxirgi tirik qolgan kishi yoki jamoa o'yinda g'alaba qozonadi.

Har bir o'yin barcha o'yinchilarning samolyotdan 1 x 1 2 x 2, 4 x 4, 6 x 6 yoki 8 x 8 km xarita bo'ylab parashyutdan sakrashi bilan boshlanadi. Samolyotning xarita bo'ylab parvoz yo'li o'yin boshida tasodifiy tanlanadi, bu o'yinchilardan parashyutdan sakrash uchun eng yaxshi vaqtni tezda aniqlashni talab qiladi. O'yinchilar raundni hech qanday jihozlarsiz boshlashadi, o'yin jarayoniga deyarli ta'sir qilmaydigan moslashtirilgan kiyimlar bundan mustasno. O'yinchilar qo'ngandan so'ng, ular turli binolar, inshootlar va boshqa inshootlarda qurol, transport vositalari, kiyim-kechak, zirh, taktik jihozlar, tibbiy buyumlar va boshqa narsalarni qidirishlari mumkin.

Qo'ngandan keyin bir muncha vaqt o'tgach, har bir necha daqiqada xaritaning o'ynash mumkin bo'lgan maydoni tasodifiy joyda qisqara boshlaydi, xavfsiz zonadan tashqaridagi har qanday o'yinchi shikastlana boshlaydi, bu oxir-oqibat ularning o'limiga va ular uchun o'yinning tugashiga olib keladi qachonki ular o'z vaqtida xavfsiz zonaga etib borishga ulgurmasalar; o'yinda o'yinchi hududning chegarasini vaqt o'tishi bilan torayib borayotgan moviyrang devor sifatida ko'radi.

Yuklab olishlar: PUBG Mobile 2018-yilning ikkinchi eng ko‘p yuklab olingan mobil o‘yini bo‘ldi va butun dunyo bo‘ylab 300 millionga yaqin yuklab olingan. O‘yinning eng katta bozori Xitoy bo‘lib, o‘yinni yuklab olishning 29% ni tashkil etdi, undan keyin Hindiston va AQSh, har birida taxminan 10% (30 million) yuklab olingan. Bu 2018-yilda eng ko‘p o‘rnatilgan jangovar royale o‘yini bo‘lib, Fortnitega qaraganda 200 millionga ko‘proq o‘rnatildi. 2021-yil mart oyida PUBG Mobile Xitoydan tashqarida bir milliarddan ortiq yuklab olingan edi. Jumladan, Peacekeeper Elite, o‘yinning xitoycha versiyasi va Battlegrounds Mobile India o‘yinida 2022-yil dekabr holatiga ko‘ra o‘yinning umumiy o‘yinchilari soni 1,3 milliardga yaqin edi^[1].

Daromad: 2018-yilda PUBG Mobile Yaponiyada 3,58 milliard ¥ (32,42 million dollar) yig‘di. 2020-yil avgustigacha PUBG Mobile 3,5 milliard dollardan ortiq daromad oldi. PUBG Mobile 2020-yilda 2,6 milliard dollardan ortiq daromad keltirdi va bu yilning eng yuqori daromad keltirgan o‘yini bo‘ldi va uning umumiy hajmini oshirdi. 2020-yil dekabr holatiga ko‘ra daromad 4,3 milliard dollardan oshdi. 2022-yil dekabrda bu ko‘rsatkich 9 milliard dollardan oshdi^[1].

O‘yinning hozirgi statistikasi: Pubg mobile o‘yini bugungi kunga kelib Play Marketdan 500 millondan ortiq yuklab olingan. Yuklab oluvchilar tomonidan

44 397 822 ta shah qoldirilgan va 5/4,5 ball tuplab turibdi. Shundan bilsa bo‘ladiki bu o‘yin o‘yinchilarga juda manzur kelgan.^[2]

Pubg mobile o‘yini yurtimizda ham juda omalashgan o‘yinlardan biri hisoblanadi.

Shundan bulsa kerak Pubg mobile o‘yini uzbek tilida uynash imkoniyati yatildi. Hozirda mashhur o‘yinlar: “Mobile legends bang-bang”, ”clash of clans” va boshqa o‘yinlarning uzbek tilida chiqmaganligidan Bu o‘yin o‘yinchilari orasida uzbek o‘yinchilarining soni ham kam emasligini kursatadi. Bundan tashqar shu o‘yin orqali kuplab yangi so‘zlar kirib kelmoqda. Bularga misol qilib: “bot”, “krisa”, “event”, “vector”, “donatr”, “skin”, “us” va boshqalar.

PUBG Mobile o‘yinchi bazasini tez o‘sishiga yordam bergan asosiy omillardan biri bu uning ijtimoiy integratsiyasi qobiliyatidir. O‘yin do‘stlar va tanishlar bilan birga o‘ynash imkonini beradi, bu esa foydalanuvchilarga bir-birlari bilan aloqada bo‘lish va yangi do‘stlar orttirish imkonini yaratadi. Jamoaviy o‘yinlar, strategiyalar muhokamasi va hamkorlik qobiliyatlari orqali o‘yinchilar bir-biriga yaqinlashishi mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari PUBG Mobile o‘yinida muvaffaqiyat qozonish uchun strategik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va jamoa bilan hamkorlik qilish talab etiladi. Bu ko‘nikmalar nafaqat virtual dunyoda, balki real hayotda ham qo‘llanilishi mumkin. O‘yinchilar xaritalarni o‘rganish, qarshi hujumlarni rejalashtirish va resurslarni boshqarish orqali murakkab muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Va yana PUBG Mobile kabi o‘yinlarning psixologik ta‘sirini e‘tiborga olish muhimdir. Ba‘zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli va haddan tashqari o‘yin o‘ynash zararli ta‘silarga olib kelishi mumkin, masalan, uyqu buzilishi, stress, qattiq hayajon va ijtimoiy aloqalarning pasayishi. Shuningdek, o‘yin davomida paydo bo‘ladigan raqobat va g‘azab hissi salbiy ruhiy holatlarni kuchaytiradi.

Haddan tashqari kup o‘ynash natijasida o‘yinga qaramlilik, deprssiya, real dunyodan uzilish kabi holatlar paydo bulishi mumkin. Bazi bolalar ota-onasi telefonini bermasa bolalar arazlab biror ish qilmay yoki biror yumushni qilishi uchun ular telefon uynashni talab qiladigan holatlar paydo bulmoqda. Shunga qaramasdan bazi o‘yonchilar o‘z o‘yinlari orqali daromad topayotgani ham sir emas albatda. PUBG Mobile o‘yini orqali kuplab turnerlar utkaziladi va kuplab pul mukofotlari va boshqa qimmatbaho sovg‘alar beriladi. Bu turnerlarga misol qilib

PUBG Mobile Global Championship (PMGC), PUBG Mobile Club Open (PMCO), PUBG Mobile Pro League (PMPL)^[3], O'zbekistonda esa Uzbekistan PUBG Mobile Championship, Universitetlararo va kollejararo musobaqalar, Mahalliy kafe va o'yin zallari tomonidan uyushtirilgan musobaqalar bunga misol bula oladi. Pul yutuqlariga kelsak birgina PUBG Mobile Global Championship turniri uchun mukofot jamg'armasi taxminan 6 million AQSh dollarini tashkil etdi, bu turnirning 2021-yildagi kursatkichi va u hozirgacha har yili o'tkaziladi. Turnirlada qatnashmasdan ham o'z o'yin uynash salohiyatini keng jamoatga kursatib ham daromad topaytgan o'yinchilar ham kam emas. Ular o'z o'yin o'ynash jarayonlarini YOU TUBE platformasi orqali jonli e'fir uyishtirib obunachilarni tuplaydi va istalgan odam donat qilishi uchun o'zining plastick karta raqamlarini ham qoldirishadi va istalgan odam bu karta raqamiga pul utkazishi mumkin bo'ladi. Hozirgi kunda shunday daromad topayotgan shaxslar: Knyaz, Aslamboi, X Mayor, Asadbek va boshqalar.

Xulosa: PUBG Mobile o'yini, nafaqat o'yin sifatida, balki ijtimoiy vosita sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. U foydalanuvchilarni bir-biri bilan aloqada bo'lishga, yangi do'stlar orttirishga va hatto turli madaniyatlardan kelgan odamlar bilan muloqot qilishga undaydi. O'yin shuningdek, o'yinchilarga strategik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Ammo, o'yinning raqobatbardosh tabiati ba'zi o'yinchilarda stress, g'azab va aggressiv xatti-harakatlarni kuchaytirishi mumkin, bu esa o'yinchi va uning atrofidagilarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan, PUBG Mobile o'yini katta daromad manbai hisoblanadi, bu esa o'yin sanoatining rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Mikrotransaksiyalar, professional e-sport musobaqalari va o'yin ichidagi reklamalar orqali yirik moliyaviy muvaffaqiyatlar qo'lga kiritiladi.

Xulosa qilib aytganda, PUBG Mobile o'yini keng qamrovli ijtimoiy ta'sirlarga ega bo'lib, u nafaqat o'yinchilar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi, balki turli sotsial va madaniy muammolarni ham yuzaga keltiradi. O'yinning ijobiy ta'sirlarini maksimal darajada oshirish va salbiy oqibatlarini minimallashtirish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rish, jumladan, vaqtini boshqarish, salomatlikni saqlash va moliyaviy mas'uliyatni ta'minlash muhimdir.

REFERENCES

1. <https://www.wikipedia.org/>
2. https://play.google.com/store/apps/details?id=com.tencent.ig&hl=en_US
3. <https://escharts.com/ru/tournaments/pubg-mobile>